

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal


2  
0  
2  
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

# **Yashil**



**IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT**

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 328 sahifa.*

*E'lion qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridtinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar .....	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatichiligi.....	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatlari investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi .....	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirova	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiysi .....	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanishning nazariy asoslari .....	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth? .....	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili .....	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish .....	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi .....	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b>	
Davlat budgetining soliqli daromadlari tahlili .....	139
<b>Abduraimova Nigora Radjabovna</b>	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon .....	143
<b>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</b>	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida) .....	151
<b>Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich</b>	
Cостояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
<b>Гаппарова Майрамхон Зафар кизи</b>	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari .....	161
<b>Nosir Maximov, Lola Azimova</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari .....	167
<b>Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan</b>	
Davlat budgeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
<b>Sherxon Tuychiyev</b>	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
<b>Ergashev Jahongir Baxodirovich</b>	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari .....	180
<b>Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich</b>	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
<b>Azizova Zilola Lochin qizi</b>	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari .....	191
<b>Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich</b>	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
<b>Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi</b>	
Анализ прибыли агропромышленности .....	204
<b>Гафурова Азизахон Фатиховна</b>	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach.....	209
<b>Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloyevna</b>	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries .....	213
<b>Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruva faoliyatining roli .....	216
<b>Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich</b>	
Zначение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
<b>Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич</b>	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
<b>Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich</b>	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
<b>Mirzayev Kobil Nosirjonovich</b>	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
<b>Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
<b>Zarina Ashurova</b>	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri .....	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari .....	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Cуть и значимость инновационных технологий в региональном управлении .....	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	
SWOT-анализ использования социальных сетей в туристической индустрии узбекистана .....	279
Касимова Зилола Гуламидиновна	
Germaniya tajribasidan foydalanish orqali o'zbekistonda turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari .....	287
Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi, Ochilov Akram Odilovich	
Blockchain texnologiyasining bank operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni .....	291
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
Tijorat banklarini reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalanish yo'llari .....	294
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Zначение business city как инфраструктурного объекта .....	303
Солиева Умидा Алишер кизи	
The potential for the development of wage labor as a factor .....	308
Usmanov Ilkhom Achilovich	
Ways to improve the organizational and economic mechanism of business tourism in Uzbekistan.....	312
Musayeva Shoira Azimovna, Usmanova Dilfuza Ilkhomovna	
Kichik biznes subyektlarining faoliyatini baholashning metodologik asoslari .....	318
Mavrushev Ravshan Ne'matjonovich	
Kichik korxonalarni rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	324
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	



# KICHIK KORXONALARНИ RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

**Ergasheva Nigora Abdigapparovna**

Namangan viloyati Davlatobod tuman  
1-shahar shifoxonasi bosh hisobchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kichik korxonalarni rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning muhim jihatlarini ko'rib chiqilgan. Shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishning ahamiyati va ushbu mavzuga doir masalalar yuzasidan bir nechta xorijiy davlatlarning ish uslublari namuna sifatida ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** xususiy tadbirkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar, mintaqaviy bozorlar, bozor konyunkturasi, kichik biznes, ijtimoiy yo'naltirilish, innovatsiya, xavfli loyihalar, boshlang'ich sarmoya.

**Abstract:** This article considers the important aspects of using foreign experiences in the development of small enterprises. Also, the importance of the organization of free economic zones in the development of the economy and the work methods of several foreign countries are shown as examples.

**Key words:** private entrepreneurship, socio-economic tasks, regional markets, market conditions, small business, social orientation, innovation, risky projects, initial investment.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены важные аспекты использования зарубежного опыта развития малого предпринимательства. Также в качестве примеров показаны значение организации свободных экономических зон в развитии экономики и методы работы ряда зарубежных стран.

**Ключевые слова:** частное предпринимательство, социально-экономические задачи, региональные рынки, рыночные условия, малый бизнес, социальная направленность, инновации, рискованные проекты, первоначальные инвестиции.

## KIRISH

Bugungi kunda kichik korxonalar har qanday mamlakatning iqtisodiy tizimida muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat iqtisodiy rivojlanishning asosi, balki yangi ish o'rnlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va aholi farovonligini oshirishda ham muhim rol o'yinaydi. Kichik biznes subyektlari iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda, davlat byudjetiga soliq tushumlarini ko'paytirish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda ham sezilarli hissa qo'shadi. Shu bilan birga, globalashuv jarayonida xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlardan foydalanish kichik korxonalar rivoji uchun muhim omil hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategiyalari, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish hamda mahalliy sharoitga moslash-tirish katta ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha orttirilgan tajribalarni o'rganish, ularning muvaffaqiyat omillari va mexanizmlarini mahalliy sharoitlarda qo'llash orqali kichik korxonalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochiladi. Shu ma'noda xorij tajribasini tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish kichik biznes subyektlarini raqobatbardosh qilishda muhim ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Kichik korxonalarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar soni oxirgi yillarda sezilarli darajada oshdi. Bu mavzu nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro miqyosda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy izlanishlarda kichik biznesning iqtisodiyotdagagi o'rni, ularni rivojlantirishning samarali strategiyalari va xorijiy mamlakatlar tajribalariga oid qator yondashuvlar tahlil qilingan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganishga bag'ishlangan ishlar ichida M. Shveitser va J. Stolning tadqiqotlari alohida o'rinni egallaydi. Ular kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ham-



korlikning samaradorligini tahlil qilgan. Bu tadqiqotda kichik korxonalarning rivojlanishi uchun innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etishning muhimligi alohida ta'kidlanadi.

Shuningdek, P. Druker va J. Birchung kabi iqtisodchi va tadbirkorlik bo'yicha mutaxassislarining asarlarida kichik biznesni rivojlantirishda menejmentning samarali strategiyalari va innovatsion yechimlarning ahamiyati chuqur yoritilgan. Ayniqsa, P. Drukerning kichik korxonalarini boshqarishda inson kapitali va bilimga asoslangan yondashuvlari ko'plab davlatlarda muvaffaqiyatlari tahlil qilgan.

Milliy tadqiqotlar orasida esa A. Tursunovning ishlarini ta'kidlash mumkin. Uning tadqiqotlari O'zbekiston sharoitida kichik biznesning rivojlanishi, davlat tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarining tahliliga bag'ishlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning kichik va o'rta korxonalarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilgan Qaror va farmonlari davlatning bu sohaga qaratgan e'tiborining muhimligi haqida ma'lumot beradi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlar kichik biznesni rivojlantirishda innovatsiyalar, moliyaviy va menejment strategiyalarining hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi hamda bu sohada xorijiy tajribadan foydalanishning dolzarbigini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Kichik korxonalarini rivojlantirish usullarini o'rganishda umumiylidkan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, uning qonuniy-me'yoriy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiyot islohotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masala O'zbekiston hukumatining iqtisodiyot sohasida amalga oshirayotgan islohotlarida eng ustuvor, davlat siyosati darajasida ko'tarilgan masalalardan biri bo'lib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu asosda aholining bandligi va farovonligini oshirish muammolarini hal etishdan iborat[1]. Kichik biznesni rivojlantirish asosida bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hal etilishi nazarda tutiladi.

Birinchidan, jahon tajribasi shuni ko'rsatadi, kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi, shuningdek, aholini ish bilan ta'minlashda, uning daromadlarini oshirishda eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, hozirgi sharoitda jahon va mintaqaviy bozorlarda raqobat keskinlashib borayotgani hammaga a'yon. Aynan kichik biznes o'zining harakatchanligi, kam sarmoya talab qilishi hisobidan ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilash imkoniyatiga ega ekani va shu tariqa bozor konyunkturasining o'zgaruvchan talablari yaxshi moslasha olishi bilan e'tiborlidir.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'sishi bilan mamlakat tayanchi va suyanchi bo'lgan mulkdorlar o'rta sinfini shakkllantirish vazifasi bevosita hal etiladi. Umuman aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda aholi bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbai bo'lgan muhim bo'g'in hisoblanmoqda.

Shu jihatdan respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi sharoitida iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilishini kuchaytirish, ishlab chiqarishni iste'molchilar talablari asosida amalga oshirish va tashkil etish hamda fuqarolarni tadbirkorlik bilan shug'ullanishlariga keng yo'l ochib berish, ularning mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanishiga, yuqori samara, tashabbus va tashkilotchilik asosida tadbirkorlik faoliyatini olib borishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikada kichik biznesni takomillashishi va rivojlanishida chet el tajribalarini har tomonidan o'rganish, yaxshi kuzatish va xulosa chiqarib, to'g'ri qarorga kelish va xususiy tadbirkorlar tomonidan o'z shaxsiy ishini tashkil etish jarayoniga muvofiqlashtirish lozim.

Kichik biznesning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi kerak: byudjet orgali bevosita yordam puli (masalan, AQSHda yordam puli yiliga 300 ming dollarga yaqin miqdorni tashkil qiladi). Pul hajmi kichik biznes sug'urta qilinmagan zararlarni qoplash uchun belgilangan bo'lishi kerak. Yordam puli innovatsiyaning xavfli loyihalarni qoplaydi va katta biznes talab qilmaydigan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni kuchaytiradi. Davlat bank kreditlarini olishda kafil sifatida chiqadi. Shuning uchun mayda biznesga kredit olish ancha yengilroq; kichik biznes soliq imtiyozlariga ega bo'lishi kerak (Masalan, AKSHda soliqlar umumlashtirilganda foydaning 44 foizini tashkil etadi: 36 foizi milliy, 8 foizi - shtat solig'i). Agarda firma ijtimoiy tarmoqqa yoki ishlab chiqarishning rivojlanishiga ajratilgan mablag'ni ko'paytirsa, soliq solinadigan ulush



qisqartirilishi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniya va Italiyada yosh tadbirkorlar yuqori chegirish bilan tadbirkorlik faoliyatini boshlash va davom ettirishi haqida, shuningdek, bozorga qanday chiqish mumkin, ishbilarmon sheriklarini qanday topishi haqidagi maslahatlarni tekinga olishi mumkin. Bundan tashqari, u o'zini qoniqti-radigan narxga ijara imorat va xususiy biznesni boshlash uchun kerakli asbob uskuna olib, amaliy ishda sinab ko'rishi mumkin. Germaniyada kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning davlat dasturi amalga oshiriladi. Unga muvofiq, tadbirkorlarga faoliyatning dastlabki ikki yilda foizsiz kredit beriladi[2]. Keyingi yillarda esa juda past stavkalarda yillik foizlar undiriladi. Shu tariqa tadbirkorlar bepul boshlang'ich sarmoya bilan ta'minlanadi. Jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtida mazkur vazifalarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy hududlar yetakchi o'ringa ega[3]. Shu boisdan dunyoning aksariyat davlatlari, xususan, Xitoy, AQSh, Fransiya, Janubiy Koreya, Meksika, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlar misolida hududning geografik va boshqa qulayliklaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bugungi kunda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish zaruriyat va an'anaga aylangan. Birgina o'tgan asrning 90-yillarining o'talarida dunyoda 1200 ga yaqin erkin iqtisodiy hududlarning har xil turlari, jumladan, eksportga mo'ljallangan 300 dan ortiq ishlab chiqarish hamda 400 ga yaqin erkin ilmiy-texnikaviy hududlar faoliyat ko'satgan. Chunki bunday hududlarni tashkil etishdan asosiy maqsad mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya hamda boshqaruv tajribasini jalb etish orqali uning sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy sohani rivojlantirish barobarida zamonaviy bozor infratuzilmalarini tashkil etishdan iboratdir. Erkin iqtisodiy hududlar hozirga kelib to'xtovsiz rivojlanmoqda. Rivojlanish oddiydan murakkabga, arzon va tez sotiladigan variantdan ko'p tarmoqli va kapital talab qiluvchiga o'tib bormoqda[4]. Zamonaviy jahon tajribasida 30 ga yaqin erkin iqtisodiy hududlarning turlari mayjud bo'lib, ulardan ko'p ulushga ega bo'lganlar bu bojxona hududlari, to'lovlari olib tashlangan hududlar, bojxona erkin hududlari, erkin eksport hududlari, erkin eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish hududlari, erkin ishlab chiqarish hududlari, iqtisodiy barqarorlik hududlari, o'zaro tadbirkorlik hududlari, texnika-iqtisodiy rivojlantirish hududlari, fan-sanoat parklari va boshqalar iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan fikrlarga xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hudud (EIH)larning tashkil etilishi ko'payib, rivojlanishi tobora kengayib bormoqda. Bu esa dunyo mamlakatlari orasida EIHLarni tashkil etish ko'lami va turlarining yildan yilga ortib borishiga sabab bo'lmoqda. EIHLarning tashkil etilishi va rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatsada, ular ichida tashkil etilgan EIHLar faoliyati samaradorligining jahon iqtisodiyoti va alohida davlat iqtisodiyoti o'sish darajasidan ham bir necha barobarga yuqori ekanligini alohida keltirib o'tish lozim. Jumladan, "EIHLarda foyda me'yori o'rtacha 25-30 %ni, Osiyodagi EIHLarda 35-40 %dan yuqorini tashkil etadi. Mazkur hududlarda kapital qo'yilmalarning qoplanish muddati 2-3 martaga qisqa hisoblanadi. Odatda, kiritilgan mablag'lar 3-3,5 yilda qoplansa, bunday qo'yilma me'yordagi hisoblanadi.

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda EIHLar orqali ular iqtisodiyotiga jami xorijiy investitsiyalarning 30 %dan 80 %gacha qismi kirib keladi". Shu jihatdan O'zbekistonda ham so'nggi yillarda milliy iqtisodiyotni uning tarmoqlari va hududlari orqali rivojlanishda EIHLarni tashkil etish va rivojlanishiga alohida e'tibor qaratib kelimoqda. Bu borada oxirgi vaqtarda amalga oshirilayotgan islohotlar endilikda o'z samarasini berayotganligi bilan g'oyatda ahamiyatlari hisoblanadi. Mazkur islohotlar ijrosi va samaradorligini yanada oshirishda ushbu sohada samarali faoliyat ko'rsata oluvchi mutaxassislarning mavjudligi va yetarliligini ta'minlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Xususan, EIHLarni tashkil etish va rivojlanishda investitsiyalar, jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati yuqoriligidan kelib chiqib, milliy iqtisodiyotning EIHLar faoliyati va ularga jalb etiluvchi xorijiy investitsiyalar orqali jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyasini faollashtirishga xizmat qiluvchi malakali, zamonaviy bilimga ega, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyoj bugungi kunda tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda va ortib bormoqda. Shunga muvofiq bugungi kunda respublikamizda mazkur sohaga oid zamonaviy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan, milliy va jahon iqtisodiyoti integratsiyasini Jadallashtirishda muhim o'rinn tutuvchi zamonaviy kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, hozirgi vaqtida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular tayyorlanmoqda.

### Foydalilanigan adabiyotlar

- Boltabaev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva SH.J.,
- G'oyipnazarov K., Samadov A.N., Xodjaev R.S. Kichik biznes va tadbirkorlik. - T.: AV1V MAZNK1UOT1, 2011 y.
- Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010. – B. 180.
- Mahmudov N.M., Eshov M.P va boshqalar. Jahon iqtisodiyotiga integratsiya. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 200 b.



5. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – 176 b.
6. Сайдмуродов М. (2022). Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида қишлоқ худудларида аҳоли турмуш даражасини яхшилашда кичик бизнес ва тадбиркорликнинг аҳамияти. Eurasian Journal of Academic Research,2(6), 878-881.
7. Муртазаев О., Мирзаев Ж.А. & Сайдмуродов М.Т. (2021). Стихияли шаклланган меҳнат (мардикорлар) бозори таҳлили ва уни бартараф қилиш йўллари. DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR, 267.
8. Камола П.А. & Сайдмуродов М.Т. (2023). Мева-сабзавот кластерларида маркетинг тизимини такомиллаштириш. the theory of recent scientific research in the field of pedagogy,1(7), 1-4.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

